

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

*Elektron nashr,
542 sahifa, may, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Iloxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik **& iqtisodiyot**

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 - Makroiqtisodiyot
08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 - Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 - Ekonometrika va statistika
08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 - Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 - Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 - Marketing
08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 - Menejment
08.00.14 - Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 - Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 - Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 - Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan
"Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan
milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha
"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

M u a s s i s: "Tadbirkor va ishbiarmon" MChJ

H a m k o r l a r i m i z:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Mahalliy budjetlar daromadlarini oshirish imkonoyatlari	12
Soatova Nodira Boboxanovna	
Bank aksiyalarining bozor bahosini shakllantiruvchi omillar va baholash metodologiyasi	18
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
Namangan viloyatida kichik biznes subyektlarini yanada rivojlantirish va ular samaradorligini oshirish.....	23
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
Kichik biznesni tijorat banklari tomonidan moliyalashtirishning o'ziga xos jihatlari	31
Nematulloyev Suxrob Sobirovich	
Qayta tiklanadigan vodorod narxlari strategiyasini o'rganish: xarajat noaniqliklarini bartaraf etish	35
Nuraliyeva Komila Sanakulovna	
Prospects for improving the efficiency of deposit operations in commercial banks	42
Olimov Abror Axadjon o'g'li	
Bank tizimida moliyaviy innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar mohiyati va ahamiyati.....	51
Xodjimamedov Akmal Ashurovich, Umedov Abdullo Umedovich	
Elektron tijoratnini rivojlantirishni boshqarish samaradorligini baholash natijalari tahlili.....	57
Madieva Zuxra Iskandarbekovna	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida xotin-qizlar barqaror ish bilan bandligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	63
Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi	
Qurilish materiallari sanoati korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	70
Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li	
The role of sports marketing in training leadership personnel in the sports management system.....	75
B.Y.Hamraev	
Sanoat korxonalarida quyosh energiyasidan foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari	79
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	
Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish konsepsiyasi	85
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich	
Роль центрального банка в контроле инфляции: политика инфляционного таргетирования	95
Камилова Наргиза Абдукахоровна, Пиримкулов Фирдавс Шухратович	
Ко'pkari ot sporti o'yini chavandozlari sport kiyimini ishlab chiqish uchun tavsiya etilayotgan matolarning xususiyatlari tahlili	102
Musayeva Lobar Sayfullayevna, Po'latova Saboxat Usmanovna	
Оценка технико-экономических показателей автономной фотоэлектрической установки с устройством очистки от снега.....	107
Юлдошев Исроил Абриевич, Рустамова Шахноза Шухрат кизи, Ботиров Бозорбек Мусурмон угли, Жураев Обид Шавкатович, Атоева Мохинур Амриллаевна	



Some considerations about the specific features of advertising texts	116
Mustaqimova Kunduz Sobirovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlari amaliyoti tahlili.....	121
Tangriev Izzat Raxmatullaevich	
Fransuzcha va o'zbekcha terminlar vektori asosidagi semantik o'xshashlik.....	125
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Abduaxadova Zilola Jamoliddinovna	
Sayyohlik tilining raqamli tadqiqi: fransuz va o'zbek terminlarining multimodal vektor va vizual xaritalanishi.....	131
Abduaxadova Zilola Djamoliddinovna	
Обеспечение финансовой устойчивости предприятий: проблемы и решения	136
Аллаберганов Зокир Гойибович	
Qurilish korxonalarini boshqarishning tashkiliy mexanizmlarini shakllantirishdagi muammolar	142
Alijonov Jamshid Alijon o'g'li	
Innovatsion startaplarni moliyalashtirishda venchur kapitali	149
Bozorova Ozoda Raximovna	
Pul-kredit siyosati orqali iqtisodiyotni tartibga solish	154
Berdiyev Akram O'ktamovich	
Yashil buxgalteriya hisobi va ekologik masalalarga oid xalqaro talablar va yondashuvlar	163
Eshquvvatova Muxlisa Avaz qizi	
Sug'urta tashkilotlari moliyaviy hisobotlari auditida muhimlik va risk darajasini aniqlash uslubiyotini takomillashtirish	169
Abduraimova Maftunaxon Axmatovna	
Chizmageometriya fanida gamifikatsiya va didaktik o'yinlarning samaradorligi.....	174
Yo'ldashev Solmonjon Iqboljon o'g'li	
Tijorat banklarining nodepozit moliyaviy resurslarini optimallashtirish	179
Tangirkulov Bekzod Boxadirovich	
Теоретические аспекты, причины и специфика безработицы (на примере Республики Узбекистан)	186
С.Э. Холмуратов	
Xalqaro oziq-ovqat bozorida raqobat sharoitida meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishga oid xorij tajribalari	191
Mengnorov Almardon Abdirahmonovich	
O'zbekistonning butunjahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonlari va uning soliq tizimiga ta'siri	202
Qurbonov Muxiddin Abdullaevich	
Qoraqalpog'istonda mehmonxona xo'jaligining hozirgi holati tahlili	207
Xalimova Fayoz Nafasovna	
Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning bugungi kundagi ahamiyati.....	212
Norboyeva Mahliyo Rustamovna, Komiljon Baxromov Muzaffar o'g'li	
Method of drying melon using solar radiation and a household solar-infrared dryer.....	216
Khakimova Sabina Shamsiddin qizi, Qodirov Jobir Ro'zimatovich, Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, Yangiboyev Fayoz G'aybulla o'g'li	
Qishloq xo'jaligi tarmog'ini moliyalashtirish istiqbollari	227
Ishniyazov Baxrom Normamatovich	
Влияние розничного кредитования на потребительский спрос	231
Базарова Нигора Равшановна	



Влияние розничного кредитования на потребительский спрос	231
Базарова Нигора Равшановна	
Прямые иностранные инвестиции как основной фактор повышения конкурентоспособности экономики стран	238
Наврұзов Икрам Абдуллаевич	
Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish	243
Ishniyazov Baxrom Normamatovich	
Tayyor mahsulotlar hisobi bo'yicha xorij tajribasi va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari.....	248
Xotamov Alisher Xotamjon o'g'li, Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich	
Sanoat korxonalarida asosiy vositalar qadrsizlanishi va eskirishini hisobga olishni optimallashtirish.....	255
Kurbonova Shaxrinov Avaxonovna	
Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish	262
Tulovov Erkinjon To'liqin o'g'li, Shanasirova Nodira Abdullayevna	
Digital transformation in public sector: advantages and challenges of the integration.....	266
Abdurakhmanova Sevinch	
Стратегическое планирование и предсказание результатов деятельности организации.....	271
Алимов Бехзоджон Наврузжонович	
Влияние привлечения инвестиций в национальную экономику на повышение конкурентоспособности предприятий.....	277
Каримова Дилафруз Садирдин кизи	
Nomoddiy aktivlar auditida sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari.....	283
Rozmatova Umida Yuldashevna	
To'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash operatsiyalari bo'yicha sug'urta zaxiralarini shakllantirishni xalqaro standartlar asosida tashkil etish.....	290
X.A.Raximov	
"Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishning innovation mexanizmlari va normativ asoslari"	294
Karabaev Sanjar Abdusamatovich	
Tibbiyot muassasalarida iqtisodiy barqarorlikning dinamik tahlili	302
Elmurodov G'ayratjon Abdumurodovich	
Korxonada faoliyatini optimallashtirishdagi iqtisodiy tahlilning roli va ahamiyati.....	308
Sattorov Mirjahon	
Роль контекстного маркетинга в условиях ограниченной аудитории и дефицита ресурсов.....	313
Дебердиев Анвар	
O'zbekistonda korxonalarining iqtisodiy barqarorligini raqamli texnologiyalar yordamida oshirish	319
Iminova Nargizaxon Akramovna, Mo'yudinov Ma'murjon Mansurjon o'g'li	
Jahon amaliyotida eksport moliyalashtirishi: uning shakllari, afzalliklari va kamchiliklari	328
Xudoynazarov Sherzod Ismoilovich	
Ramli transformatsiya va korxonaning barqarorligi	333
Soibov Nozimbek Faxridin o'g'li	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish.....	342
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	



Роль цифровой эпохи в банковской сфере	346
Максудова Шахзода	
Yashil iqtisodiyotda innovatsiyalar va ekologik barqarorlik.....	350
Sultonov Omon Juma o'g'li	
Iqtisodiy modernizatsiya va uning davlat rivojlanishiga ta'siri	355
Zuvaydullaev Nematullo Oybek o'g'li	
Международный опыт: применение корпоративного менеджмента в государственном управлении развитых стран.....	360
Махмудова Севара Улугбековна	
Carbon markets and agribusiness: assessing the role of emissions trading in promoting sustainable agricultural practices.....	366
Mubina Toirova	
Standartlashtirishda nanotexnologiyalarning o'rni va ahamiyati	371
Ahmedova Sitara Asqar qizi	
Sut mahsulotlarini saqlash jarayonini boshqarish tizimining barqarorlik masalasi.....	376
Sabirov Ulugbek Kuchkarovich, Oqilov Azizbek Kozimjon o'g'li	
Kredit risklarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni.....	392
Hamroyev Sherzod Axtamovich	
Alyuminiy ion energiya saqlaydigan qurilmalarning afzalliklari	399
Bafoyev Abduhamid Hoshim o'g'li	
Buxgalteriya axborotining investisiya qarorlarga ta'siri.....	403
Rahmatova Shahnoza Shukurovna	
Комплексный подход к оценке и обеспечению финансовой безопасности текстильных предприятий.....	408
Турсунов Бобир Ортикмирзаевич	
Markaziy osiyo mamlakatlarida nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish: O'zbekiston tajribasi bilan solishtirma tahlil.....	416
Aliyev Arslon Salom o'g'li	
Temir yo'l transportini rivojlantirishda xorijiy olimlarning ilmiy yondashuvlarl	422
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
IoT (Internet of Things) texnologiyalari va ularning ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llanilishi	428
Karabayev Ibragim Turdiyevich, Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich, Yoqubov Bobur Mamasobir o'g'li	
Improvement of preparation of accounting policies in joint-stock companies	433
Ovlayev Suhrob Temur o'g'li, Yo'lchiyev Oybek Ulug'bek o'g'li, Normo'minova Dilorom Umar qizi, Avlayeva Oybarchin Olim qizi	
Korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish.....	437
Samadov Askarjon Nishonovich	
Bir qatlamli elastik asosda joylashgan to'sinning seysmik kuchlar ta'siridagi tebranishining v.z. vlasov usuli asosida analitik tadqiqi	444
Kamola Xaydarova	
Applications of hyperbolic geometry in physics and biology	449
Khaknazarova Khurshidabonu Kenjaevna, Otakulova Rukhshona Akram kizi	
Korxonalarni qayta tashkil etishda moliyaviy hisobot tuzish bo'yicha xalqaro tajriba, uni o'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....	456
Davletov Ikram Raximberganovich	



Qoraqalpog'iston respublikasida turizm rivojini ta'minlovchi iqtisodiy va tashkiliy choralarni mukammallashtirish.....	462
Teumuratov Baxadir Genjemuratovich	
Milliy iqtisodiyotda fond bozorini rivojlantirish istiqbollari	468
Sultonov Sherali Nuraliyevich	
Дифракция и отражение упругих поперечных волн в изотропной среде с жёсткой границей	476
Салиев А.А., Кеунимжаев М.К.	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalari samaradorligi va amaliy holati tahlili	481
Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	
Aralash tolalardan tayyorlangan iplarning mustahkamlik xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish	486
Nurboev Rashit Xudoyberdievich, Salimov Shuhrat Halimovich, Bozorov Rustam Rasulovich	
Namangan viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish istiqbollari: Hududiy raqobatbardoshlik va innovatsion yondashuvlar	491
Khusniddin Egamnazarov	
Klasterlar hisob siyosatida boshqaruv hisobining metodologik asoslari.....	498
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Jismoniy shaxslar soliq ma'muriyatchiligining nazariy masalalari.....	505
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Ibragimov Boburshox Boxodir o'g'li, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Digital Transformation in Public Sector: Advantages and Challenges of the Integration.....	511
Abdurakhmanova Sevinch	
Важность проекта “Умный город” в Узбекистане.....	517
Акбаржон Иминов	
Iqtisodiy tizimda risk va uning xususiyatlari.....	522
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Innovatsion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish va boshqaruv samaradorligini belgilovchi omil va jihatlar.....	530
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
Влияние цифровизации на сокращение теневой экономики: возможности и ограничения	536
Срождиддинова З.Х., Шарифзода Мубина Дилмуроджон кизи	



INNOVATSION FAOLIYATNING MOLIYAVIY RAG‘BATLANTIRISH VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BELGILOVCHI OMIL VA JIHATLAR

Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich

Iqtisodiyot fakulteti, i.f.f.d (PhD), kafedra dotsenti
Namangan davlat texnika universiteti

ORCID: 0000-0002-3765-5778

Annotatsiya: Maqolada korxonalar innovatsion faoliyatini moliyaviy rag‘batlantirish va boshqaruv samaradorligini belgilovchi omil va jihatlarni ko‘rib chiqilgan. Mazkur masala bo‘yicha turli rag‘batlantirish usullari o‘rganilgan hamda ularni korxonalarda qo‘llash imkoniyatlari aniqlanib, baholangan. Innovatsion faoliyatni moliyaviy rag‘batlantirish va boshqaruv samaradorligini ta‘minlovchi omil va jihatlarni yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion faoliyat, rag‘batlantirish, sanoat korxonalari, moliyaviy rag‘bat, samaradorlik, xorijiy tajriba, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, globallashtirish, iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy infratuzilma.

Abstract: The article examines the factors and aspects that determine the financial incentives and management efficiency of enterprises' innovation activities. Various incentive methods on this issue are studied, and the possibilities of their application in enterprises are identified and evaluated. Proposals have been developed regarding the factors and aspects that define financial incentives and the efficiency of innovation management.

Keywords: innovation activity, incentives, industrial enterprises, financial motivation, efficiency, foreign experience, socio-economic development, globalization, economic growth, social infrastructure.

Аннотация: В статье рассматриваются факторы и аспекты, определяющие финансовое стимулирование и эффективность управления инновационной деятельностью предприятий. Изучены различные методы стимулирования по данной проблеме, выявлены и оценены возможности их применения на предприятиях. Разработаны предложения по факторам и аспектам, определяющим финансовое стимулирование и эффективность управления инновационной деятельностью.

Ключевые слова: инновационная деятельность, стимулирование, промышленные предприятия, финансовое стимулирование, эффективность, зарубежный опыт, социально-экономическое развитие, глобализация, экономический рост, социальная инфраструктура.

KIRISH

Har bir mamlakatda innovatsiyalarning asosiy buyurtmachilaridan va iste'molchilaridan biri sanoat hisoblanadi. Sanoat korxonalari mavjud mahsulotlarga nisbatan yaxshiroq va arzonroq tovarlarni ishlab chiqarish va takomillashtirishga intiladilar. Innovatsiyalar tufayli korxonalar foyda oladi, davlat byudjetiga soliq tushumlari oshadi, jamiyat esa farovonlikka erishadi. Shunga qaramay, ayrim hollarda korxonalar innovatsiyalarga bo'lgan intilishi sust bo'ladi. Chunki yangi texnika va texnologi-



yalarga o'tish ko'pincha mavjud ishlab chiqarishni vaqtincha to'xtatishga olib keladi. Uskunalar xarid qilish, yangi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, shuningdek, ishlab chiqarish quvvatiga to'liq erishilishini kutish zarur bo'ladi. Bozor esa yangi mahsulotni har doim ham ijobiy qabul qilmasligi mumkin. Bundan tashqari, muvaffaqiyatsizliklar ko'pincha ochiq e'lon qilinmagani sababli, innovatsiyalar joriy etilishi doimo ijobiy natijalar beradi degan noto'g'ri tasavvur shakllanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot davomida yuqorida ta'kidlangan innovatsion faoliyatga oid masalalar keng o'rganildi. Dastlab, keng ma'nodagi "innovatsiya" atamasi birinchi marta avstriyalik iqtisodchi Y. Shumpeter tomonidan 1912-yilda "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi"¹ asarida taklif etilgan. Innovatsion nazariyaning asosiy qoidalari ham aynan ushbu asarda to'laqonli asoslab berilgan.

Amerikalik boshqaruv bo'yicha mutaxassis P. Druker innovatsiyaga nisbatan yanada kengroq yondashuvni ilgari surdi. Unga ko'ra, "yangilik kiritish – bu murakkab tizim bo'lib, uning yordamida g'oyalar va ixtirolar birinchi marta tijorat voqeligiga aylanadi. Bu – mahsulot yoki xizmat turlarini bozorga chiqarish va ularni iqtisodiyotga muvaffaqiyatli joriy etish demakdir"² deb ta'kidlaydi.

Yana bir ta'rifga ko'ra, innovatsiya – bu jamiyat taraqqiyotining ta'siri ostida insonning o'zgaruvchan ehtiyojlarini to'laroq qondirish uchun yangilik kiritish, yangi amaliy vositalarni yaratish, tarqatish va ulardan foydalanish jarayonidir.

E. A. Utkin esa innovatsiyani (yangilik kiritishni) amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot yoki kashfiyot natijasida ishlab chiqarishga joriy etilgan, avvalgisidan sifat jihatdan farq qiluvchi obyekt sifatida ta'riflaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqib, ilmiy va nazariy yondashuvlar o'rganilib, tahlil qilindi. Tadqiqotda belgilangan maqsadlarga erishish uchun aniq yo'nalish tanlab olindi. Birlamchi va ikkilamchi ma'lumot manbalarini chuqur o'rganish va asoslash maqsadida tadqiqot strategiyasi belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, sanoat korxonasi ochiq tizim bo'lib, u tashqi muhit bilan bog'langan. U raqobatbardosh bo'lishi va samarali faoliyat yuritishi uchun tashqi muhitga moslasha olishi lozim. Tashqi muhitning asosiy tavsiflari – uning murakkabligi, noaniqligi, harakatchanligi va omillarning o'zaro bog'liqligidir. Muhitning murakkabligi omillar xilma-xilligi va ularning o'zgaruvchanligi bilan belgilanadi. Noaniqlik esa har bir omil bo'yicha mavjud axborot miqdori va uning ishonchliligi bilan bog'liq. Harakatchanlik muhit omillarining o'zgarish tezligi orqali ifodalanadi.

Korxonada innovatsion faoliyatining tashqi muhitini shakllantirishda davlat muhim o'rin egallaydi. Bu subsidiyalar, soliq imtiyozlari, huquqiy normalar, bojxona imtiyozlari, kvotalar, kredit siyosati kabi vositalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, innovatsion faoliyat mahsuli bo'lgan mahsulotga xaridor topish, ularning talabiga moslashish ham zarur. Ushbu omillar innovatsion faoliyatning moliyalashtirilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shunga o'xshash bog'liqlikni ishlab chiqarishni moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlashdagi shartnoma shartlari, narxlar belgilanishi, resurslar sifati, tomonlar manfaatining huquqiy himoyasi kabi jihatlar ham kuzatish mumkin. Bu jarayonlarning davlat tomonidan tartibga solinishi innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga xizmat qilishi lozim.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda ilm-fan sohasi hali yetarli darajada rivojlanmagan. Xususan, ilmiy tashkilotlarning moddiy-texnika bazasi zaifligi sanoat innovatsiyalarini yaratishda jiddiy to'siq bo'lmoqda. Ilmiy tashkilotlardagi uskunalar asosiy qismi 20 yildan ortiq foydalanilayotgan bo'lib, ayniqsa laboratoriya asbob-uskunalar va o'lchov qurilmalari jadal yangilanishga muhtoj.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, yangi texnika namunalari yaratilishining o'rtacha davomiyligi 2–3 yilni tashkil etadi. Bu jarayonga innovatsion faoliyatning boshlang'ich bosqichini moliyalashtirishdagi

1 Shumpeter Y. "Teoriya ekonomicheskogo razvitiya". – M., Progress, 1982. –455s.

2 П.Друкер Новый бизнес.- М.: Экономика, 1993, с



qiyinchiliklar ham ta'sir ko'rsatadi. Dastlabki bosqichda natijalar yetarlicha aniqlikka ega emas, bozor esa ko'proq aniq, tezkor natijalarni talab qiladi. Bu muammoni davlat tomonidan ilmiy-texnik ishlanmalarni moliyalashtirish orqali yengib o'tish mumkin. Biroq, yaqindagi holatlarga qadar bu borada imkoniyatlar anchayin cheklangan edi.

Yana bir muhim masala shundan iboratki, korxonalar ko'pincha xorijda ishlab chiqarilgan texnologiyalar va uskunalar asosida yangi mahsulotlarni o'zlashtirishga majbur bo'ladilar. Ba'zi hollarda esa bu texnologiyalar xorijda eskirgan yoki foydalanishdan chiqarilgan bo'lishi mumkin. Bunga sabab mamlakatimizda yetarlicha texnologik ishlab chiqaruvchilarning mavjud emasligidir. Shunga qaramay, bunday texnologiyalarni tanlashdan butunlay voz kechish imkoniyati ham har doim mavjud emas.

Rivojlangan mamlakatlarda esa innovatsion jarayonlarning asosiy maqsadi bozor talabiga tezkor javob bera oladigan moslashuvchan modul texnologiyalarini joriy etishdan iborat. Bunday tizimlar ko'proq segmentlashgan bozorlar uchun xos. Afsuski, bizning bozorda segmentlashish darajasi hali past, shuning uchun korxonalar zamonaviy texnologiyalar asosida ommaviy, standart mahsulot ishlab chiqarish orqali foyda olishga intilmoqda.

Shunga qaramay, sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatida ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda. Korxonalar iste'mol bozoriga tobora ko'proq miqdorda ilg'or texnologiyalar asosidagi mahsulotlarni yetkazib bermoqda. Kichik va o'rta korxonalar import o'rnini bosuvchi butlovchi buyumlar ishlab chiqarishni kengaytirmoqda. Qator korxonalar esa mahsulot sifatini Yevropa standartlariga moslashtirishni boshlagan.

O'zbekiston sharoitida iqtisodiyotda innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlaydigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Innovatsion faoliyatni rag'batlantiruvchi aniq chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi milliy innovatsion tizimni shakllantirishga xizmat qilmoqda³.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun ustuvor strategik yo'nalishlarni aniqlash muhim vazifalardan biridir. Shu paytgacha milliy iqtisodiy tizimga yagona, umumqabul qilingan ta'rif shakllanmagan. Har bir davlat o'z iqtisodiy tizimini o'ziga xos maqsadlar asosida rivojlantiradi. Masalan, Fransiyada milliy iqtisodiy tizimning vazifasi – qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish bo'lsa, Germaniyada u – ilg'or texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Yevropalik ekspertlar bu tizimlarning samaradorligi yakuniy natijada bir xil deb hisoblaydi⁴.

Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni to'laqonli amalga oshirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish nuqtayi nazaridan ishlab chiqarish tarmoqlariga joriy etishni qiyinlashtirayotgan bir qator omillar mavjud⁵:

- Xorijiy innovatsion va ilmiy markazlarni, yetakchi investitsiya fondlarini, texnopark va agentliklarni mahalliy innovatsion loyihalarga jalb etish borasidagi chora-tadbirlar yetarli darajada emas;
- Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik natijalarini namoyish etish darajasi past;
- Investitsion muhitni yaxshilash, ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish va tarqatish tizimi yetarlicha samarali emas;
- Hududiy kesimda ilmiy va innovatsion faollik past, takrorlanuvchi loyiha va buyurtmalar kuzatilmoqda;
- Texnologiyalarni tijoratlashtirish, tashqi bozorga olib chiqish, shuningdek amaliy mexanizmlarning kutilgan natijalarni bermayotgani aniqlanmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida 2020-yil 24-iyul kuni "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi va kuchga kiritildi. Mazkur hujjatda milliy innovatsion tizimning tarkibi, shakllanish prinsiplari va rivojlanish yo'nalishlari yetarlicha yoritilmagan bo'lib, bu borada mustaqil ilmiy yondashuvlar zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Natijada, taklif qilinayotgan milliy innovatsion tizim omillarining o'zaro aloqalari modeli bilim yaratuvchilar va foydalanuvchilar, davlat tashkilotlari va innovatsion sub'yektlar o'rtasida institutsional muhit va infratizimni shakllantirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, fundamental bilimlar rivojini ta'minlashga qaratilgan.

3 Тухлиев И.С. Миллий инновацион тизимни шакллантириш ва ривожлантириш омиллари// "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 5, сентябр-октябр, 2020 йил.

4 Иванова Н.И. Национальные инновационные системы /Н.И. Иванова – М.: Наука, 2002. С.55.

5 <https://lex.uz/docs/3711923?ONDATE=04.07.2023%2000>

1-jadval: Milliy innovasion tizim omillarining o'zaro aloqalari modeli⁶

Davlat tashkilotlari	Institutsional muhit	Innovatsion faoliyat subyektlari	Innovasion ishlanmalarni tijoratlashtirish
Bilimni yaratuvchilar, ishlab chiqaruvchilar			
Ilmiy-tadqiqot tashkilotlar: fundamental, amaliy va innovasion tadqiqotlar (O'z.R.F.A. va Oliy ta'lim muassasalari), Tarmoq ilmiy- tadqiqot institutlari, Yangi texnologiyalarning tajriba-konstruktorlik byuro va tajriba-sinov, aprotasiya markazlari, Innovasion loyihalarni amalga oshiruvchi texnopolislar.	Davlat iqtisodiy-tashkiliy institutlar: Qonunchilik bazasi, O'z.R.Oliy Majlisi xuquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish: O'z.R.Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Innovasion rivojlanish vazirligini; O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi; Savdo va sanoat palatasi; O'zbekiston Respublikasi "AVTOR" elektron depozitariysi.	Innovasion- tadbirkorlik institutlar: raqamli iqtisodiyot texnologiyalarini va innovasion faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar; innovasion faoliyat sohasidagi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari; intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquq egalari; investitsiya qilishni amalga oshiruvchi investorlar va tadbirkorlik sub'ektlari innovasion texnologik parklar; texnologiyalar transferi markazlari; innovasion klasterlar; innovasion markazlar va kichik korxonalar; qo'shma va xususiy korxonalar; biznes inkubatorlar va startaplar injiniring va konsalting korxonalar	Kredit-moliya va investitsiya institutlari: respublika byudjeti hamda viloyatlar va shahar mahalliy byudjetlari; innovasion faoliyat sub'ektlarining o'z mablag'lari; xalqaro grantlar, tijorat banklarining, shu jumladan chet el banklarining va xalqaro moliya institutlarining maqsadli kreditlari; Venchur korxonalar; Ixtisoslashtirilgan fondlar, shirkatlar
Bilimdan foydalanuvchilar			
Inson kapitali: Ilmiy xodimlar, Universitetlar, Oliy ta'lim muassasalari, Professor-o'qituvchilar tarkibi, Yangi soxalar bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish markazdagi jismoniy shaxslar. Kurslardagi, ilmiy-texnika seminar treninglar va ta'lim jarayonidagi tinglovchilar	Iste'molchilar muhiti: Mahalliy xokimiyatlar, Iqtisodiyotning real sektor korxonalar i, Ilmiy tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalari, Korporativ tuzilmalar, Milliy kompaniyalar, korporatsiyalar, konsernlar, Xususiy sektor, Boshqaruv va muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar	Iste'molchilar muhiti: Fundamental bilimlar asosida tayyorlangan yuqori malakali ishchilar, Tadbirkorlar va biznesmenlar, xizmatlar va tovarlar bozori, Dastur ishlab chiquvchilar, Professional foydalanuvchilar, Biznes kompaniya lari, Innovasion xo'jalik yurituvchi korxonalar	Iste'molchilar muhiti: Innovasion-investitsiya dasturlari ijrochilari, Kichik biznes sub'ektlari, Yirik davlat korxonalar, Ilmiy tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalari, Ilmiy jamoatchilik. Xususiy va nodavlat tashkilotlar.

⁶ Тўхлиев И.С. Миллий инновацион тизимни шакиллантириш ва ривожлантириш омиллари// "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 5, сентябр-октябр, 2020 йил.

Milliy innovasion tizim omillarining o'zaro aloqalari mexanizmini rivojlantirish keng ko'lamli murakkab vazifa bo'lib, uni davlat, tadbirkorlik, iqtisodiy va ilmiy hamjamiyatlarning puxta o'ylangan, o'zaro kelishilgan samarali xatti-harakatlari orqaligina amalga oshirish mumkin. Milliy innovatsion tizimni rivojlantirishga qaratilgan davlatning ustuvor siyosati bugungi kunda O'zbekiston uchun muhim yo'nalishlar qatoriga kiradi.

Taklif qilingan milliy innovasion tizim omillarining o'zaro aloqalari modelidan O'zbekiston Respublikasi innovasion faoliyat to'g'risidagi qonun osti hujjatlarini hamda o'rta muddatli va uzoq muddatli davrlar uchun innovasion rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanish tavsiya etiladi.

Milliy innovasion tizimni rivojlantirishning zaruriy omili sifatida hududlar iqtisodiyotining rivojlantirishida istiqbolli yo'nalishlarda muhim innovasion muammolarni samarali hal etishni ta'minlovchi resurslar, muddatlar va tadbirlarni bajaruvchilar bo'yicha o'zaro aloqador majmualari – hududiy innovatsion-investitsiya dasturlarini ishlab chiqish lozim.

Xalqaro tajribalarni tahlil qilish natijasi shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston hozirda qisqa muddat ichida ichki va xalqaro bozorlar uchun raqobatbardosh vositalar yaratish imkoniga ega bo'lgan, yuqori ilmiy-texnik salohiyatli istiqbolli sohalarni yaratish va ularning faoliyatini amalga oshirish bosqichida turibdi. Buning natijasida biz milliy innovasion tizim rivojlanishini hamda uni jahon innovasion tizimiga integratsiyasini ko'rishimiz mumkin. Bu esa mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishini yangi innovatsion modelga o'tirishini ta'minlash bilan birgalikda, uchinchi Renessans poydevorini yaratishdagi ishlarga asos bo'ladi.

Hozirgi paytda innovasion faoliyat sohasida kapital harakatlanish jarayonlarida davlat bilan korxonalar o'rtasida birgalikda ish olib borish masalalari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Buning mexanizmlari va tartibga solinishi bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan masalalar mavjud. Konseptual-metodologik yo'nalishdagi qator masalalar ham hal etilmagan qolmoqda va bu iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish yo'lini shakllantirishda yo'nalishlarni asoslash va belgilash uchun juda zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumlashtirilgan holda xulosa qilinadigan bo'lsa, O'zbekiston iqtisodiyotining innovasion yo'lga o'tishi uchun zarur bo'lgan bazaviy shart-sharoitlar mavjud bo'lib, milliy innovatsion tizimning asosiy elementlari shakllantirilgan. Shu bilan birga, innovatsion faoliyatni rivojlantirishda xususiy, korporativ va xorijiy kapitalni jalb etish bu jarayonga kuchli turtki berishi mumkin.

Shunday ekan, sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish jarayonida yuqorida ko'rsatilgan omillar va ularning dinamikasi hisobga olinishi lozim. Ishlab chiqarish rivojlantirishining istiqbollari aynan innovatsiyalarni joriy etish bilan belgilanmoqda. Shu sababli, sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatni bosqichma-bosqich shakllantirib borish va innovatsion faoliyatning yuqori samaradorligini ta'minlash dolzarb vazifadir.

Innovatsion jarayon – texnika, ilm-fan, ishlab chiqarish va tadbirkorlikning o'zaro uyg'unlashgan tizimidir. Ushbu uyg'unlikdan kutilgan natijalarga erishish uchun esa unga mos, samarali moliyaviy rag'batlantirish mexanizmini shakllantirish va uni doimiy takomillashtirib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. N. Baxriddinov. Xo'jalik yurituvchi korxonalarni innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirishda xorij tajribasining o'rni. // "IQTISODIY TARAQQIYOT VA TAHLIL" ilmiy elektron jurnali, IV-son, Aprel 2025.
2. Шумпетер Й. "Теория экономического развития". – М.: Прогресс, 1982. – 455 с.
3. П. Друкер. Новый бизнес. – М.: Экономика, 1993.
4. Уткин Э. А., Морозова Г. И. Инновационный менеджмент. – М.: Акалис, 1996. – 208 с.
5. Кавалёв Г. Д. Основы инновационного менеджмента. – М., 1999. – 192 с.
6. Шумпетер И. Теория экономического развития (исследование предпринимательской прибыли, капитала, кредита, процента и цикла конъюнктуры). – М.: Прогресс, 1982. – 159 с.
7. Мирзиёев Ш. М. Xalqimizning roziligi – bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018. – 88 б.



8. Иваницкая А. Е. Функциональный подход к управлению инновационной деятельностью предприятий: автореферат... доктор экон. наук. – Владимир, 2014. – 32 с.
9. Логута И. В. Экономическое и организационное управление инновационным процессом промышленных предприятий: автореферат к.э.н. – М., 2011. – 34 с.
10. Додиев Ф. Ў. Инновацион faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish: И.Ф.Н. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – Т., 1998. – 22 б.
11. Shah Anwar. Local Budgeting / Anwar Shah. – Washington: World Bank, cop. 2007. – 381 p/

muhandislik **& iqtisodiyot**

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. May. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100